

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati

Nigora Sharipovna Shadiyeva
nigrollashadiyeva10@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimi uchun mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi zamonaviy yondashuvlarni ishlab ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohatlar haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, pedagogic kadrlarni tayyorlash, xalqaro integrasiya, ilm-fan yutuqlar, ichki va tashqi bozor.

Scientific and methodological significance of developing the creativity of future geography teachers in the use of software tools

Nigora Sharipovna Shadiyeva
nigrollashadiyeva10@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article discusses the reforms aimed at ensuring the development of modern approaches to the training of pedagogical staff in the country for the system of continuing education.

Keywords: modern education, pedagogical training, international integration, scientific achievements, domestic and foreign markets.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga oliy talim tizimida ham zamon talabiga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda.

Globalashuv va halqaro iqtisodiy integratsiya kuchayib borayotgan bugungi kunda ishlab chiqarishni ilm-fan yutuqlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, ishlab chiqarishga intellektual salohiyat yuqori samarali ishlanmalar, ilg'or innovatsion texnologiyalarni tadbiq etmasdan turib, ichki va tashqi bozorda xaridorgir mahsulotlar tayyorlash mushkuldir. Bu esa bo'lajak yosh kadrlarni mukammal bilim egallashga ko'makdosh bo'lgan xorij tajribalariga asoslangan dasturiy ta'lim vositalaridir.

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati borasida xorijiy olimlar bir qancha ilmiy ishlar olib borganlar. Masalan N.I.Lapin, B.Farberman, G.K.Selevko, K.Angelovskiy, M.V.Klarin, M.S.Burgin, L.S.Podimova, V.A.Slastenin, N.D.Mashlikina, E.M.Paciulan, A.K.Ellis, M.B.Kinney va A.Nichollslar pedagogik innovatsiyalar va innovatsion faoliyatga tayyorlash muammolari bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar

Respublikamiz olimlaridan A.A.Abduqodirov, N.Azizxo'jayeva, D.I.Yunusova, N.Saidahmedov, O'.Q.Tolipov, N.R.Yusufbekova, A.R.Xodjaboyev, A.A.Xoliqov, N.Shodiyev, O.Haydarova, A.A.Hamidov, M.Jumaniyozova, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, talabalarning dunyoqarashlari, kasbiy va muloqot madaniyatini rivojlantirish yo'llari va usullari, shuningdek, o'qituvchilarni kasbiy tarbiyalash va tayyorlash muammolari tadqiq etilgan.


N.I.Lapin innovatsiyaga shunday tarif beradi. Innovatsiya - bu jamiyatning qonuniy rivojlanishi ta'sirida o'zgarib turuvchi insonning ehtiyojlarini qonoatlantirish uchun yangi amaliy tajribani yaratish, tarqatish va foydalanishning kompleks jarayoni, shuningdek, ijtimoiy va moddiy muhitda shu yangilik bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar deb ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, predmetli mazmunga bog'liq holda texnik (unumli, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, madaniy, ta'limiy) innovatsiyalar ajratiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni talim jarayonlarida qo'llash o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning yanada takomillashuviga, ta'lim sifatini jahon andozalariga yetkazishga, kadrlarni yagona davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda tayyorlashga olib keladi.

O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish muammosini pedagogik texnologiya asosida olib borish va hal etish davr talabidir. Yangi pedagogik texnologiyada oliy o'quv yurtlarida an'anaviy ravishda joriy etilayotgan o'qitish tizimini ilmiy asoslangan ravishda amalga oshirish talab etiladi. Tajriba jarayonida talabalarda shakllanadigan bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat obyektiv borliqqa munosabatlar pedagogik jarayon mahsuli hisoblanadi.

Yuqoridagi izlanishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan ularning innovatsion faoliyat olib borish qobiliyatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashning ilmiy-pedagogik asoslari, ahamiyati va imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi bo'lajak geografiya ta'limi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini tadqiq etishni taqozo etadi.

Shu o'rinda bugungi kunda geografiya ta'limida axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Texnik vositalar, televideniya, kompyuterlar jadal ravishda ta'limga kirib kelmoqda. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan umumta'lim maktablarida geografiya fanining oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib boradi. Mazkur talablarni bajarish uchun o'qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilar bilish faoliyatini jadallashtiradi, ularni fikrlashga va ilmiy mushohada qilishga undaydi hamda o'rganayotgan geografik voqea va hodisalar bilan hayot o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Yangi o'quv vositalarini qo'llash o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishga, shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qitishning texnik vositalari o'qituvchi yordamida qo'yilgan maqsadga erishishga, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarni samaradorligini keskin oshirishga imkon beradi. Texnik vositalarni qo'llashni quyidagi afzalliklari mavjud:



Har bir qismda ko'zda tutilgan material tugallangandan so'ng o'qituvchi izoh berishi, namoyish qilingan geografik voqea va hodisalarni o'quvchilarni qanday

qabul qilganini tekshirib ko‘rishi mumkin. Ko‘zda tutilgan materiallar namoyish qilib bo‘lingandan so‘ng o‘qituvchi darsni yakunlashi lozim; namoyish etilgan material aniq va ravshan ko‘rinishi lozim. Geografiya darslarida foydalanadigan o‘qitishni texnik vositalarni quyidagi guruhga bo‘lishimiz mumkin:



O‘qitishni audiovizual vositalariga o‘quv kinosi, teleeshittirishlar, diafilmlar, diopozitivlar, transportlar kiradi. Video texnika vositalariga turli xil videomagnitafonlar kiradi. O‘qitishni axborot vositalariga kompyuterlar, internet imkoniyatlari, masofaviy o‘qitish vositalari kiradi.

O‘qituvchi o‘quv yilini boshida texnika vositalardan foydalanish rejasini tuzmog‘i lozim yoki kalendar rejada texnika vositalardan foydalanish bo‘limi bo‘lmog‘i lozim. Mazkur reja asosida texnika vositalari hafta boshida tayyorlab qo‘yilmog‘i zarur. Audiovizual o‘qitish vositalari O‘qitishni audiovizual vositalariga o‘quv kinosi, teleeshittirishlar, diafilmlar, diopozitivlar kiradi. Geografiya darslarida kinofilmlardan foydalanish. Kinofilmlardan geografiya darslarida foydalanish dars mavzusi, dars turi va boshqa holat va sharoitlarga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Dars jarayonida kinofilmlardan to‘la foydalanish mumkin, uning bo‘limlardan va qism yoki lavhalaridan foydalanish mumkin. Kinofilmni namoyish qilishni darsning turli xil bosqichlarida amalga oshirish mumkin. Ayrim kinofilmlardan to‘la ayrimlaridan qisman foydalanish mumkin. Tabiat komponentlarini ayrim qismlariga bag‘ishlangan kinofilmlardan ham dars jarayonida foydalanish mumkin. Masalan, hayvonotlarni ayrim turlariga, okean mavjudotlariga, aholiga va uning turmush tarziga bag‘ishlangan filmlar.

Yuqorida aytilganidek kinofilmlardan darsning boshida, ya‘ni o‘tilgan darslarni takrorlashda, yangi mavzuni o‘tishda, olingan bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Filmni dars jarayonidagi o‘rni darsning maqsadi va mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi. O‘quv filmlaridan bilim olish manbai sifatida ham foydalanish mumkin. Undan mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma sifatida ham foydalansa bo‘ladi. Masalan, berilgan savollarga javob topish,

namoyish qilinayotgan materiallarni mavjud (bor) material bilan, darslik bilan, o'qituvchini ma'ruzasi, qator boshqa filmlarni mazmuni bilan solishtirish. Filmlar o'qituvchilar bilimini tekshirishda va o'rganilgan mavzu mazmunini o'zlashtirish darajasini aniqlashda, o'tilgan materiallarni umumlashtirishda yoki ma'lum mavzuni umumiy tavsifi o'tishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari filmlar yordamida sinf sharoitida sayohatlar ham uyushtirish mumkin, yoki bo'lmasa o'quvchilar bevosita ko'rolmaydigan jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Masalan,



Talabalar filmda ko'rgan narsalariga kitobdan asosnoma topishlari, filmda namoyish etilgan geografik obektlarni xaritalardan topishlari zarur.

Bu esa o'z navbatida, talabalarning kreativ yondashuvini takomillashtirish, bu tizimning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Ta'lim usulining samarasi shundaki, bunday darslar mazmunli, qiziqarli bo'lishi bilan birga talabalarning faol ishtiroki ta'minlanadi. O'qitish jarayonida talabalarni tarbiyalash, ilmiy uslubiy ishlariga rahbarlik qilishga keng yo'l ochiladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Anvarova, Z. M., Mirzayeva, I. D., & Shodiyeva, N. S. (2020). The factors that influence begetting desertification process. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(11), 129-132.
2. Mirzayeva, I. (2021). GROUPING AND ASSESSMENT OF TOURISM AND RECREATION RESOURCES OF BUKHARA REGION. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 5(5).
3. Elmurodovna, M. I. (2022). Alexander Humbold's Scientific Heritage in Geography Field. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 4, 130-133.
4. Mirzayeva, I. (2021). O' RTA OSIYO TOG' LARIDAGI QADIMGI MUZLIKLARINING O' RGANILISHI VA UNING GEOGRAFIK JIHLTLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 5(5).

5. Anvarova, Z. M., Mirzayeva, I. D., & Shodiyeva, N. S. (2020). The factors that influence begetting desertification process. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(11), 129-132.
6. Komilova, N. K., Egamberdiyeva, U. T., Mirzayeva, S. K., Oblakulov, H. A., & Shadiyeva, N. S. (2020). Some theoretical issues of social geographical research. *Asia Life Sciences*, (2), 157-170.
7. Nematov, A., & Shadyeva, N. (2021). ECOTOURISM OPPORTUNITIES IN THE BUKHARA REGION. *Экономика и социум*, (3-1), 206-208.
8. Шадиева, Н. (2021). Hydrogeological Regime of the Bukhara Oasis. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz), 8(8).
9. Ahmadovich, T. N., Kosimovich, H. Y., Azamovna, J., & Ahmedjanovna, N. F. (2020). The Formation of Water Collector-Resources Drainage Network of Zarafshan Oasis and the Questions of Recycling. *TEST Engineering & Management*, 27380-2738..
10. Ahmadovich, T. N., Kasimovich, H., & Azamovna, J. T. EFFICIENT USE OF WATER RESOURCES OF THE AMU-BUKHARA CANAL. *ACADEMIK. An International multidisciplinary Research Journal*, 30, 2020-15..
11. Khayitov, Y. K., Toshbekov, N. A., & Zhumaeva, T. A. (2019). Criteria and scales of the secondary use of collector-drainage waters (on the example of the Bukhara oasis). *Bulletin of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*, 55-58.
12. Khayitov, Y. K., & Toshbekov, N. A. (2014). ON SOME HYPOTHESES OF RETURN WATER. *The Way of Science*, 39.
13. Хайитов Ёзил Косимович, Нурбек Ахмадович Тошбеков, Хамдамова Диловар Нуруллаевна. Гидрологические основы использования дренажных сетей (по премирe бухарской области). *Monografia rokonferencyjna science. Research, development* 26, 2020-28.02
14. Khayitov, Y. K., Toshbekov, N. A., & Zhumaeva, T. A. Hydrological Assessment Of The Meliorative Condition Of Collector Drink Water In Bukhara Region. *Nature and Science*.
15. Khayitov, Y. K., Toshbekov, N. A., & Zhumaeva, T. A. (2020). EFFICIENT USE OF WATER RESOURCES OF THE AMU-BUKHARA CANAL. *ACADEMIK. An International multidisciplinary Research Journal*, 5, 30.
16. Тошбеков Нурбек Ахмадович. Scientific basis of water resources and their exploitation use (on the example of Bukhara region). *Electronic journal of actual problems of modern science, education and*.
17. Hayitov, Y. K., & Toshbekov, N. A. (2021). Efficient Use Of Collector-Drainage Networks (On The Example Of Bukhara Region). *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 3(02), 10-15.

18. Toshbekov, N. (2021). БУХОРО ВИЛОЯТИДАГИ КОЛЛЕКТОР ЗОВУР СУВЛАРИ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ГИДРОЛОГИК БАҲОЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

19. Ahmadovich, T. N. (2021). DEFINITION OF DITCHES AND POSSIBILITIES OF USING THEM. СОВРЕМЕННАЯ РОССИЙСКАЯ НАУКА: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, 31..

20. Ahmadovich, T. N., Kasimovich, H., & Azamovna, J. T. EFFICIENT USE OF WATER RESOURCES OF THE AMU-BUKHARA CANAL. ACADEMIK. An International multidisciplinary Research Journal, 30, 2020-15..

21. Khayitov, Y. K., Toshbekov, N. A., & Zhumaeva, T. A. Hydrological Assessment Of The Meliorative Condition Of Collector Drink Water In Bukhara Region. Nature and Science.

22. ASADULLAYEV, A. (2020). Jamiyatda sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining o'rni. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

23. Мухаметов, А. (2021). Жамиятда соғлом турмуш тарзини ташкил қилишда жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг ўрни. Общество и инновации, 2(5), 123-129.

24. Asatullayev, A. N., & Jabborova, O. G. (2022). Bleeding and its Types, Organization of Emergency Assistance in Bleeding. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 13, 111-116.

25. ASADULLAYEV, A. (2021). sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

26. ASADULLAYEV, A. (2021). Геоэкологик муаммоларнинг инсон саломатлигига таъсири (Қоракўл йўналиши мисолида). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

27. ASADULLAYEV, A. (2021). Инсон саломатлигини зарур даражада таъминлайдиган омиллар. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

28. Sharofutdinova, R. I., Asadullaev, A. N., & Tolibova, Z. X. (2021). The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2(5), 376-379..